

# 0'zDSMIda "Factor books" nashriyoti tomonidan kitoblar yarmarkasi tashkil etildi



Bugun, 17-noyabr kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Factor books" nashriyoti tomonidan Xalqaro talabalar kuni munosabati bilan kitob ko'rgazmalari, ulgurji yarmarkalar tashkil etildi.



Yarmarka davomida nashriyot kitoblarning arzonlashtirilgan narxdagi yarmarkasi, bosh sovrin avtomobil bo'lgan Ikar kitoblari taqdimoti, yangi nashr etilgan kitoblar ko'rgazmasi hamda chop etilishi kutilayotgan kitoblar haqida suhbat jarayonlari tashkil etildi.



Ushbu ko'rgazma institut rahbariyati hamda talabalar orasida iliq kutib olindi hamda ularning qiziqishiga sazovor bo'ldi. Bunday yarmarkalar kelgusida ham tez-tez tashkil etib turilishi belgilab olindi.